

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

RAMATULLAYEV MAMAN ALISHEROVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDA SOVET HUKUMATINING 1943-1964-
YILLARDAGI ISLOM DINIGA QARSHI OLIB BORGAN SIYOSATI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

UO‘K: 94(575.172)"1940/1960"

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation

Ramatullayev Maman Alisherovich

Qoraqalpog‘istonda sovet hukumatining 1943-1964-yillardagi islom diniga qarshi olib borgan siyosati.....3

Раматуллаев Маман Алишерович

Политика советского правителста против ислама в Каракалпакстане в 1943-1964 гг.25

Ramatullayev Maman Alisherovich

The policy of Soviet government against the religion of Islam in Karakalpakstan in 1943-1964.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications52

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

RAMATULLAYEV MAMAN ALISHEROVICH

**QORAQALPOG‘ISTONDA SOVET HUKUMATINING 1943-1964-
YILLARDAGI ISLOM DINIGA QARSHI OLIB BORGAN SIYOSATI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tar1121 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://karsu.uz>) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Karlibaev Makset Abdibaevich
tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Rasmiy taqrizchilar: Saribaev Maman Ktaybekovich
tarix fanlari doktori, dotsent
Allamuratov Gulmurat Sultamuratovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «2» VIII soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (187 -raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1 uy, Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «18» - VII kuni tarqatildi.
(2024-yil «18» - VII dagi 7 -raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

S.A.Sulaymanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

[Handwritten signature]

H.M.Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

[Handwritten signature]

B.A.Koshanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ilm-fan rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar din tarixi va diniy bag'rikenglik masalalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni belgilaydi. Jahon sivilizatsiyalarining rivojlanishi doimo intellektual madaniyatga asoslangan bo'lib, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash va jamiyatni ma'rifatli qilish, diniy va milliy bag'rikenglik g'oyasi, har bir shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muammolariga kuchli e'tibor qaratilmoqda. 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyusiyasida jamiyatda barqaror ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim sharti sifatida turli diniy e'tiqodga ega kishilar o'rtasida hurmat va o'zaro tushunishni saqlash, ularga nisbatan kamsitishlarning oldini olish kabi qadriyatlar targ'ib qilinadi. Bu kabi say-harakatlar xalqaro hamjamiyatning jahonda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlash uchun qo'ygan navbatdagi katta qadami bo'lib, jamiyatdagi turli dinlar vakillarining bir-biriga hurmat bilan yondashuvida muhim o'rin tutadi.

Jahon miqyosida bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida Sovet hukumatining din va fuqarolarning diniy birlashmalari sohasidagi siyosati tarixi ham jiddiy ilmiy qiziqish uyg'otmoqda, chunki bu masala xalqlarning ma'naviy hayotini, xususan, diniy va axloqiy g'oyalarini, huquqiy normalarni, urf-odatlarini belgilab beruvchi teran madaniy dasturlar bilan bog'liq. Shu bilan birga sobiq ittifoq davrida dinga qarshi kurash, diniy ulamolarning qatag'on qilinishi, diniy marosimlarni taqiqlash bilan bog'liq ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar mintaqada millatlararo tinchlik va totuvlikni ta'minlashga, davlatlararo aloqalarni mustahkamlashga, Markaziy Osiyo xalqlarining o'zaro anglashuvi va umumiy tarixiy o'tmish asoslarini asrab-avaylashga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasida dinlararo bag'rikenglik va vijdon erkinligini ta'minlash masalasi doimo hukumat diqqat markazida bo'lib kelgan. Zero, "Mamlakatimizda bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirish, millatlar va konfessiyalararo o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va bunday yondashuv ijobiy natija bermoqda"¹. Bu borada sobiq sovetlar davrida olib borilgan diniy siyosat tarixini o'rganish, nafaqat sovet davridagi qat'iy diniy siyosat tarixini tahlil etish, balki zamonaviy jamiyatda diniy e'tiqodga asoslangan kamsitishning barcha turlarini to'xtatishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PQ-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

¹ Мирзиёев Ш. "Ислол ҳамжихатлиги: Ўзбекистон ва Озарбайжон мисолида" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига // <https://president.uz/uz/lists/view/1158>

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-sentabrdagi 612-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi². Diniy jamoa va tashkilotlar faoliyati, din tarixi, din arboblari qarshi qatag‘onlar mustaqillik davri tarixchilari, etnograflari, faylasuflari va boshqa soha olimlarida ham katta qiziqish uyg‘otdi. Sovet davrida diniy siyosat masalalarini o‘rganishga urinishlar partiya-sovet apparati tomonidan bostirildi. Biroq bu mavzu sovet davrida ham, mustaqillik davrida ham mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy mavzu bo‘lib qolmoqda.

Muammoning tarixshunosligini shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin:

- 1.Sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar va ilmiy maqolalar;
- 2.Mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar, shuningdek, olib borilayotgan ilmiy izlanishlar;
- 3.Xorijiy mualliflarning tadqiqotlari.

Bu tadqiqotlar ma‘lum bir davr siyosatini aks ettirgan bo‘lsa-da, shu bilan birga Qoraqalpog‘istonda sovet hukumatining islom diniga qarshi olib borgan siyosati oqibatlarini faqat umumiy shaklda ochib beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida olib borilgan “Qoraqalpog‘istondagi siyosiy-iqtisodiy va sotsiomadaniy jarayonlarning tarixiy retrospektivasi va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash tendentsiyalarini o‘rganish (1946-1991)” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sovet hukumatining 1943-1964-yillardagi Qoraqalpog‘istonda islom diniga qarshi olib borgan diniy siyosati tarixini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini ochib berish, uning tarixshunoslik va manbaviy bazasini tahlil qilish;

Sovet hukumatining Qoraqalpog‘iston musulmonlariga nisbatan siyosatiga bag‘ishlangan arxiv ma‘lumotlarini ilmiy muomalaga kiritish;

Qoraqalpog‘istonda sovet hukumatining din bilan mafkuraviy kurashining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

² Muammoning o‘rganilganlik darajasi dissertatsiyaning 1-bobida batafsil ochib berilgan.

Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davrda diniy siyosatning o'zgarishi sabablarini aniqlash;

Sovet hukumatining din va din arboblari qarshi olib borgan siyosatining mazmuni va mohiyatini ochib berish;

Qoraqalpog'istonda olib borilgan ateistik tashviqot ishlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti 1943-1964-yillarda Qoraqalpog'istonda sovet hukumatining islom diniga qarshi olib borgan siyosati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida partiya-sovet apparatining ulamolarga va musulmon dini vakillariga qarshi faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni tadqiq qilish jarayonida tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, biografik va chuqur intervyu usullari kabi an'anaviy manbashunoslik va tarixshunoslik usullaridan, shuningdek, ilmiylik, ob'ektivlik, tarixiylik va tizimlilik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sovet davlatining fashizmga qarshi kurashda musulmonlar va boshqa din vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga muhtojlik va urushning dastlabki yillaridagi muvaffaqiyatsizliklar hukumatni diniy siyosatni qayta ko'rib chiqish hamda dinga qarshi targ'ibotni to'xtatishiga, dindorlarning musulmon diniy tashkilotlarini tuzish barobarida Qoraqalpog'istondagi masjidnlarni ochish haqidagi talablarini qondirishga majbur bo'lganligi asoslangan;

1943-yilda Qoraqalpog'istonda norasmiy ravishda faoliyat yuritayotgan masjid va namozxonalar sonining ko'payishiga urush paytida musulmonlar diniy boshqarmasi vakillari tomonidan shaxsiy jamg'armalaridan front uchun mudofaa jamg'armasiga pul mablag'lari, davlat zayom obligatsiyalari, moddiy yordam jo'natilishi, urushga ketgan askarlar oilasiga yordam ko'rsatishi kabi omillar imkon berganligi aniqlangan;

diniy faoliyat uchun ruxsat berilishi bilan birga bir vaqtning o'zida sovet davlati tomonidan urushdan keyingi davrda dinga qarshi ritorikani tashviqot-targ'ibot ishlari asosida mustahkamlanishi, dindorlarga qarshi ta'qiblarni ruhoniylarning ommaviy axborot vositalarida obro'sizlantirish orqali bosqichma-bosqich kuchayishi, dindorlarning bir qismini surgun qilinishiga, boshqa qismini esa respublika tashqarisiga ko'chib ketishga majbur qilganligi dalillangan;

1950-yillarning ikkinchi yarmi – 1960-yillarni boshlarida Sovet hukumatining islom diniga nisbatan ateistik siyosati endilikda dinga qarshi kurash shakllari va usullarini o'zgartirgan holatda: "ilmiy ateizm"ning joriy etilishi, ta'qiblar va dindorlarni "qayta tarbiyalash"ga e'tibor qaratib, jamiyat ko'z o'ngida ularni yomonotliq qilishga yo'naltirilganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya ishida keltirilgan materiallar, shuningdek, ma'lumotlar, takliflar va xulosalar jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy aloqalarni tiklashga ta'sir qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda monografik nashrlarni tayyorlash va nashr etishda ulardan maqsadli foydalanishga yordam beradi;

amaliy takliflar davlat va din o'rtasidagi munosabatlar, fuqarolik jamiyati va demokratik davlatni shakllantirishda samarali hamkorlik aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarixiy jarayonlarni aks ettirgan respublika davlat arxivlari (O'zbekiston Milliy arxivi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi) fondlaridan olingan materiallar, statistik ma'lumotlar, diniy xizmatkorlarga qarshi qatag'onlar tarixi bo'yicha davriy matbuot materiallari, o'rganilayotgan davrga oid davriy matbuot materiallari, mazkur davrda yashagan dindorlar va ularning avlodlari tomonidan yozib qoldirilgan xotiralar, esdaliklar, og'zaki tarix materillaridan foydalanilganligi, tarixiylik va xolislik tamoyillarini qo'llanilishi, olingan natijalarni vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan ulamolarga qarshi qatag'onlar tarixini o'rganish, sovet davrida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning yaxlit holatini ko'rsatib beradigan nazariy yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki undan Qoraqalpog'istonning yangi tarixi bo'yicha yangi tadqiqotlarda, shuningdek, dissertatsiya materiallaridan respublika oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda darsliklar, o'quv qo'llanmalar va elektron nashrlar, ma'ruzalar va maxsus kurslarni ishlab chiqishda, tarixiy va madaniy merosni tiklash va saqlash, jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitni saqlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sovet hukumatining Qoraqalpog'istonda islom diniga qarshi siyosatini har tomonlama o'rganish asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar, natijalar va amaliy tavsiyalar quyidagicha amalga oshirildi:

Sovet davlatining fashizmga qarshi kurashda musulmonlar va boshqa din vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga muhtojlik va urushning dastlabki yillaridagi muvaffaqiyatsizliklar hukumatni diniy siyosatni qayta ko'rib chiqish hamda dinga qarshi targ'ibotni to'xtatilishiga, dindorlarning musulmon diniy tashkilotlarini tuzish barobarida Qoraqalpog'istondagi masjidlarni ochish haqidagi talablarini qondirishga majbur bo'lganligiga oid natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan "Qoraqalpog'istondagi siyosiy-iqtisodiy va sotsiomadaniy jarayonlarning tarixiy retrospektivasi va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash tendentsiyalarini o'rganish (1946-1991)" loyihasi bo'yicha materiallar tayyorlash jarayonida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 3-avgustdagi № 305/1-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi sovet hukumatining Qoraqalpog'istondagi musulmon dini va uning vakillariga nisbatan siyosat yo'nalishlarini tushuntirib berishga xizmat qilgan.

1943-yilda Qoraqalpog'istonda norasmiy ravishda faoliyat yuritayotgan masjid va namozxonalar sonining ko'payishiga urush paytida musulmonlar diniy

boshqarmasi vakillari tomonidan shaxsiy jamg'armalaridan front uchun mudofaa jamg'armasiga pul mablag'lari, davlat zayom obligatsiyalari, moddiy yordam jo'natilishi, urushga ketgan askarlar oilasiga yordam ko'rsatishi kabi omillar imkon berganligi bo'yicha natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining "Tariyximizdi uyrenemiz" teledasturlarining stsenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-avgustdagi № 05-22/377-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar teletomoshabinlarga sovet davridagi diniy siyosat va uning oqibatlarini bo'yicha tasavvurlarini kengaytirishga imkon bergan.

diniy faoliyat uchun ruxsat berilishi bilan birga bir vaqtning o'zida sovet davlati tomonidan urushdan keyingi davrda dinga qarshi ritorikani tashviqot-targ'ibot ishlari asosida mustahkamlanishi, dindorlarga qarshi ta'qiblarni ruhoniylarning ommaviy axborot vositalarida obro'sizlantirish orqali bosqichma-bosqich kuchayishi, dindorlarning bir qismini surgun qilinishiga, boshqa qismini esa respublika tashqarisiga ko'chib ketishga majbur qilganligiga oid tadqiqot natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida ko'rgazmalar tashkil etishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 2023-yil 4-avgustdagi № 01-03/04-324-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi muzeyga tashrif buyuruvchilarni dindorlarga qarshi ta'qiblarning bosqichma-bosqich kuchayishi, dindorlarning surgun qilinishiga oid dalillar bilan tanishtirishga imkon bergan.

diniy faoliyat uchun ruxsat berilishi bilan birga bir vaqtning o'zida sovet davlati tomonidan urushdan keyingi davrda dinga qarshi ritorikani tashviqot-targ'ibot ishlari asosida mustahkamlanishi, dindorlarga qarshi ta'qiblarni ruhoniylarning ommaviy axborot vositalarida obro'sizlantirish orqali bosqichma-bosqich kuchayishi, dindorlarning bir qismini surgun qilinishiga, boshqa qismini esa respublika tashqarisiga ko'chib ketishga majbur qilganligiga oid tadqiqot natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida ko'rgazmalar tashkil etishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasining 2023-yil 4-avgustdagi № 01-03/04-324-sonli ma'lumotnomasi). Natijalarning qo'llanilishi yoshlarni ajdodlar xotirasiga ehtirom va ma'anaviy merosni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan 3 ta xalqaro hamda 8 ta respublika ilmiy-amaliy, nazariy konferentsiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnika taraqqiyotining yetakchi yo'nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilish darajasi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti, ilmiy yangiligi ochib berilgan, amaliy natijalari va ularning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

“Tadqiqotning metodologik muammolari hamda tarixshunoslik bazasi” nomli dissertatsiyasining birinchi bobi ikki paragrafdan iborat. Birinchi paragrafda mavzuni tadqiq etishning metodologik muammolari ochib berilgan va ularni ishlab chiqish usullari ham tamoyillari muhokama qilingan. Xususan, dissertatsiya mavzuni o'rganish jarayonida din va uning davlat idoralari bilan munosabatlariga metodologik yondashish masalasiga e'tibor qaratiladi. Jumladan, mahaliy va horijiy mualliflarning qarashlari, fikr-mulohozalari tadqiq etilgan. Masalan, chet ellik tadqiqotchilar mintaqa tarixiga, shu jumladan, bizning tadqiqotimiz mavzusiga ham e'tibor berishgan. Uslubiy nuqtai nazardan Stanley Evans³, W. Kollarz⁴ va boshqalarning asarlari muhim rol o'ynaydi, ularda Islom dinining zamonaviy tarixdagi ahamiyati haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Amerikalik olim S. Zenkovskiyning ta'kidlashicha, bu qiziqish 1950-yillarda kuchaygan⁵. A. Bennigsen, J. Uiler, V. Kolars, S. Uimbush, M. Olcott va boshqalarning asarlarida Sovet hukumatining diniy siyosatiga baho berilgan⁶. V.A.Axmadullinning asarlarida qiziqarli ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularda u Sovet hokimiyatining ruhoniylar bilan munosabatlari, 1944-1965-yillarda Sovet fuqarolarining Haj ziyoratini amalga oshirishi va boshqalar haqida to'xtalib o'tadi⁷. Bulardan tashqari rossiyalik olimlar M.I.Odintsov, A.S.Kochetova⁸, S.A.Charniy⁹, R.R.Ibragimov¹⁰, L.M.Martseva, S.V.Novikov¹¹, S.V.Fefilin¹², V.V.Tregubenko¹³,

³ Stanley Evans. Religion in the USSR. Published by London: Russia Today Society, 1942 г. 16 pages. Churches in the USSR. Published by London: Corbett Publishing Company. 1943. 160 pages.

⁴ Walter Kolarz. Religion in the Soviet Union. Published by Macmillan; St.Martin's P, 1961. 518 pages.

⁵ Zenkovsky S. American research on Russia's Moslems // The Russian review. – 1959. –Vol. 18. - № 3. – P.201.

⁶ Халилова З. 1945-1991 йилларда Ўзбекистонда ислом дини таълимнинг ҳолати ва тархшунослиги: Тарих фан.б.фалс.док. ... дис. – Тошкент, 2019. – 42-43-бб.

⁷ Ахмадулин В.А. Государственно-мусульманские отношения в СССР в 1944-1965 гг: дис. ... д-ра ист. наук. – Москва, 2020.

⁸ Одинцов М.И., Кочетова А.С. Конфессиональная политика в Советском Союзе в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг. Москва: Научно-политическая книга; Политическая энциклопедия, 2014. – 317 с.

⁹ Чарный С.А. Государственная политика в отношении еврейских религиозных общин в период «оттепели» (1953-1964). Дис. ... канд. ист. наук. Москва. 2008. 215 стр

¹⁰ Ибрагимов Р.Р. Власть и религия в Татарстане в 1940-1980-е гг. Казань, 2005. – 182 с.

¹¹ Марцева Л.М., Новиков С.В. Ислам: очерки истории религии, государства и права: учеб. пособие. – Омск: Изд-во ФГОУ ВПО ОмГАУ, 2006. – 228 с.

¹² Фефилин С.В. Взаимоотношения государства и религиозных организаций в 40-х – середине 50-х гг. XX в.: На материалах Краснодарского края: дис. ... канд. ист. наук: Майкоп, 2002. – 235с.

¹³ Трегубенко В.В. Религиозный вопрос на Ставрополье и Кубани в 1941-г. – начале 1960-х гг.: сущность, место в обществе, отношение власти: дис. ... канд. ист. наук: Пятигорск, 2013. – 223 с.

T.K.Nikolskaya¹⁴, Yu.N.Guseva¹⁵, I.I.Maslova¹⁶, A.N.Marchenko¹⁷, A.B.Yunusova¹⁸lar ham mazkur masalani o'rgananlar va ushbu dissertatsiya tadqiqotini yoritishda muhim rol o'ynaydigan bir qator muhim jihatlarini aniqlaganlar.

1990-yillar va XXI asr boshlarida bu mavzu Markaziy Osiyo olimlarining tadqiqotlarida eng muhim mavzuga aylandi¹⁹. Ularning orasidan A.Bazarov, R.G.Avezbaev, A.Saltikov, A.Kadirov, A.Puzinoy, X.Dodixudoev, R.Madjidov, K.Tagirov, X.G.Ishankulov, I.M.Djabbarova, I.Makatov, A.Axmedov²⁰larning ilmiy ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga ushbu paragrafda tadqiqotning manbaviy asoslari (O'MA, QR MDA fondlari), dissertantning dala yozuvlari, ularni tadqiq etishda ilmiy, ob'ektivizm va tarixiylikning umumiy uslubiy tamoyillariga tayanganligi ta'kidlanadi. Tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, biografik va chuqurlashtirilgan intervyu usullari, shuningdek, bir qator ilmiy tahlil usullari (sintez, tahlil va boshqalar) qo'llanilganligi asoslangan.

Ikkinchi paragraf muammoning tarixshunosligi va ularning ilmiy tahliliga bag'ishlangan. Masalaning tarixshunosligi shartli ravishda uch guruhga bo'linadi: Sovet davridagi ilmiy adabiyotlar, mustaqillik davridagi ilmiy adabiyotlar va xorijiy olimlarning asarlari va nashrlari.

Sovet davrida diniy siyosat va davlatning ularga munosabat masalalari O'zbekiston va Qoraqalpog'istonlik tarixchi va faylasuflarining asarlarida o'z ifodasini topib, ular o'z asarlarini monografiyalari, ilmiy to'plamlar va boshqalar shaklida nashr etdilar, biroq ular hukmron mafkura doirasida yozilgan. Ularda dinning jamiyatga zararli ta'siri, diniy qoldiqlarga qarshi kurash va ateistik ta'lim usullari ko'rsatiladi. Shuningdek, "Lektorga yordam" sarlavhasi ostida risolalar nashr etgan "Bilim" jamiyati faoliyatini ham eslatib o'tish zarur. Ular din tarixi, xususan, islom tarixini, dinga qarshi kurashish zarurligini va sovet jamiyatida

¹⁴ Никольская Т.К. Русский протестантизм и государственная власть в 1905-1991 гг.: дис. ... канд. ист. наук. Санкт-Петербург, 2003, - 273 с.

¹⁵ Гусева Ю.Н. Мусульмане Поволжья в советский период отечественной истории: на материалах Нижегородской, Самарской, Ульяновской областей: дис. ... д-ра ист. наук. Москва, 2013. -443 с.: ил.

¹⁶ Маслова И.И. Эволюция вероисповедной политики советского государства и деятельности Русской Православной церкви: 1953-1991 гг.: дис. ... д-ра ист. наук. Москва, 2005. - 545 с.

¹⁷ Марченко А.Н. «Хрущевская церковная реформа и ее влияние на внутри церковную жизнь по материалам Уральского региона: 1958-1964 гг.: дис. ... д-ра ист. наук. Москва, 2008. - 392.

¹⁸ Юнусова А.Б. Ислам в Башкортостан: История, состояние и перспективы развития: дис. ... д-ра ист. наук. Москва, 1997. - 342 с.

¹⁹ Бозоров А. Некоторые особенности и пути формирования атеистического мировоззрения таджикского дехканства. -Душанбе: Ирфон, 1991. Назаров А.Х. История религиозной жизни мусульман Таджикистана в 1941-1991 гг. автореф. К.и.н. Душанбе. 2004. Ауанасаова Б.М. История эволюции религиозных отношений в Казахстане (на примере ислама 1941-1991 гг.): дис. ... канд. ист. наук. -Уральск, 2007. Мухтарова Г.Д. Ислам в советском Казахстане (1917-199 годы): дис. ... д-ра ист. наук. - Уральск, 2007. Юсупов Р.М. Узбекистонда XX асрнинг 40-80 йилларида мусулмон диний ташкилотлари ва уламолар фаолияти (МДА маълумотлари асосида): Тарих фан. ном. ... дисс. автореф. - Тошкент: Мирзо Улугбек номидаги Узбекистон миллий ун-ти, 2008. - 33 б., Абдурасулова Х.И. Ислам и религиозная политика в Узбекистане в 1940-1980-е годы: анализ англо-американской историографии. Ташкент: Yangi nashr, 2011. - 108 с.

²⁰ Назаров А.Х. История религиозной жизни мусульман Таджикистана в 1941-1991 гг// Автореф. дисс. на к.и.н. Душанбе 2004. 32 стр.

ateistik dunyoqarashni shakllantirishni ilmiy-ommabop shaklda tushuntirdilar²¹. Dissertant ushbu asarlarda ikkita yo‘nalishni ajratish zarurligini ta’kidlaydi: birinchi guruh davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning ayrim jihatlarini o‘rganish bilan tavsiflanadi. Mualliflarning aksariyati dinni ayollarning huquqlarini, jamiyatning dunyoviy rivojlanishini cheklovchi va ijtimoiy voqelikka faol moslashuvchi reaksiya ta’limot sifatida to‘xtatuvchi vosita sifatida taqdim etgan; ikkinchi guruhga ateizm va ateistik ta’lim bo‘yicha darsliklar va qo‘llanmalar kiradi.

O‘zbekiston tarixshunosligida ushbu tadqiqot muammosi X.Abdullaevning tadqiqot ob’ektiga aylanib, u har bir fuqaroning vijdon va din erkinligi, dindorlarning huquqlari Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u har bir kishi diniy qoldiqlarga qarshi kurashish huquqiga ega deb hisoblagan va bu kurash ham vijdon erkinligining ajralmas qismi hisoblanadi²². Xuddi shunday yo‘nalishda N. Ashirov²³ va T. Saidbaev²⁴ ning, asarlari yozilgan bo‘lib, ularda diniy xizmatkorlarining ommaviy nutqlarini tanqid qilish, dinning jamiyatni sekulyarizatsiya qilishdagi o‘rni masalalari yoritilgan.

Qoraqalpog‘iston tarixshunosligida faylasuflarning bir qator asarlari ham mavjud bo‘lib, ularda yuqoridagi masalalar yoritilgan. Xususan, T.Izimbetov asarlarida islom dini, uning genezisi va evolyutsiyasi, turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar faoliyati davridagi modernizatsiya va zamonaviylik masalalari ko‘rib chiqilgan²⁵. J.Bazarbaev va S.Abaev asarlarida diniy xizmatkorlar va din arboblarning mol-mulkini musodara qilish, ateizm va dinni sotsiologik o‘rganish, ilmiy va ateistik tarbiyani kuchaytirish masalalari yoritilgan²⁶.

Mustaqillik davrida olimlar diniy vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishga, davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy jihatlariga, diniy ulamolarning nomlarini tiklashga va umuman davlat siyosatida diniy masalaga alohida e’tibor qaratdilar. Dissertant B.Babajanov, N.Mustafaeva, R.Yusupov, A.Salmonov, H.Yo‘ldashxo‘jaeva, I.Qayumova, H.Abdurasulovalarning ilmiy ishlarini, D.Ismoilova, Z.Xalilovalarning dissertatsion tadqiqotlarini alohida ta’kidlaydi²⁷.

²¹ Халилова З.Э. Ўзбекистонда 1945-1991 йилларда ислом таълими: муаммонинг тарихшунослик таҳлили//Ўзбекистонда тарих фани: муаммолар ва ривожланиш истиқболлари. Тарихшунослик ўқишлари – 2017 Конференция материаллари. Тошкент, «Akademnashr», 2018. 214-215-бб.

²² Абдуллаев Х. Ислам динининг вужудга келиши ва баъзи масалалари. «Қизил Ўзбекистон», «Правда Востока» ва «Ўзбекистони Сурх» бирлашган нашриёти. Тошкент – 1962. 48-б.

²³ Аширов Н. Эволюция ислама в СССР. - М.: Политиздат, 1972. 152 стр.

²⁴ Саидбаев Т.С. Ислам и общество. Опыт историко-социологического исследования. «Наука». 1978, 253 с

²⁵ Изимбетов Т. Ислам и современность. Нукус, 1963. 161 б. Изимбетов Ислам динининг социализм тусында модернизацияланыуының себеплери хэм мәниси. –Н. Қарақалпақстан, 1988. – 232 б. Изимбетов Т. Дин хэм атеизм. – Н. Қарақалпақстан, 1991. – 332 б.

²⁶ Базарбаев Ж. Әўлийешиликлердиң сырлары. – Н. Қарақалпақстан, 1972. – 71. Базарбаев Ж. Характер религиозности сельского населения Каракалпакской АССР и пути ее преодоления (опыт конкретно-социологического исследования): дисс. ... д.ф.н. – Нукус, 1973., Абаев С.А. Уллы Октябрь хэм Қарақалпақстанда атеизмнің раўажланыуы. – Н. Қарақалпақстан, 1984. 74 б., Атеизм в Каракалпакстане. Опыт и проблемы. Ташкент, ФАН, 1987. 156 стр., Хўждан еркинлиги хәкқында сәўбет. – Н. Қарақалпақстан, 1981. – 88 б.

²⁷ Исмоилова Д.А. «Ислам динининг Туркистон ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётидаги ўрни ва роли (XIX аср охири – XX аср бошлари)». Тар.фан.номз...дисс. - Тошкент, 2006. 147 б.; Халилова З.Э. «1945-1991 йилларда Ўзбекистонда ислом дини ва таълимнинг ҳолати ва тарихшунослиги»: тар.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2019. - 173 б.

Shu yillarda qoraqalpog‘istonlik olim va tadqiqotchilar ham mintaqada diniy siyosatning amalga oshirilishi, sovet hokimiyati davrida diniy xizmatkorlarga qarshi qatag‘onlar, ularning jamiyatdagi mavqeiga ham e’tibor qaratdilar. Masalan, T.Abdimuratov, O.Oteuliev, A.Dauletmuratov, E.Usenov, A.Juzimbetovlar ilmiy-ommabop shaklda din vakillari hayoti va faoliyatini yoritib berdilar²⁸.

Sovet hukumatining Qoraqalpog‘istondagi repressiv siyosatining yirik tadqiqotchilaridan biri prof. Sh.Babashev ko‘p yillik arxiv va boshqa ma’lumotlarni o‘rganish, unutilgan va shu paytgacha noma’lum din arboblarning ismlarini aniqlash asosida diniy ulamolar hayotiga ham katta e’tibor qaratgan²⁹. Prof. B.Qoshanov va H.Otegenovlarning “Ocherkii istorii Karakalpakstana (1916-1991 godi)” asarida sovet hokimiyati mavjud bo‘lgan butun davr mobaynida diniy ulamolarga qarshi qatag‘onlar uzluksiz davom etganini ko‘rsatadilar³⁰. B.Qoshanovning G.Izimbetova va N.Zinatdinov bilan birgalikdagi alohida tadqiqoti sovet davlatining Qoraqalpog‘istondagi diniy ulamolarga nisbatan siyosati masalasiga bag‘ishlangan³¹. Ya.Abdullaeva o‘z tadqiqotlarida din va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar, dinning sovet davridagi ayollar hayotiga ta’siri masalalari ko‘rib chiqilgan³².

Mavzuni o‘rganishga o‘z tadqiqotlarini islom dini va uning institutlarining qoraqalpoqlarning ijtimoiy va madaniy hayotidagi roliga bag‘ishlagan M.Karlibaev katta hissa qo‘shdi³³. Sovet hukumatining 1930-1940-yillarda din va din vakillariga nisbatan siyosatining aks etishi S.Nurjanov asarlarida ham yoritilgan³⁴.

Umuman olganda, mavzu tarixshunosligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, biz ko‘rsatgan xronologik doirada ushbu ilmiy muammo bugungi kungacha alohida o‘zining ilmiy yechimini topmagan.

Ikkinchi bob – “1943-1953-yillarda Qoraqalpog‘istonda diniy tashkilotlarning faoliyati” deb nomlanib, uchta paragrafdan iborat.

Birinchi paragraf Ikkinchi jahon urushi davrida diniy tashkilotlarning faoliyatini qayta tiklanishi masalasiga bag‘ishlangan. Dissertatsiyada Sovet hukumatining dinga munosabatida bir necha bosqichlar mavjudligi ta’kidlanadi: 1) Sovet hokimiyati o‘rnatilgan davrning dastlabki 7-8 yili, yangi hukumatning

²⁸ Эбдимуратов Т. Репрессияға ушыраған уламалар: Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – 84 б.; Отеулиев Ө. Хўждан хэм хўким. Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – 128 б., Сол автор. Сэлмен ийшан хэм басқалар. Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023. – 64 бет.; Дәўлетмуратов Д. Сэлмен ийшан. Нөкис: Қарақалпақстан, 2008. – 32 б.; Дәўлетмуратов Д. Нурымбет ахун. Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2015. – 60 б.; Дәўлетмуратов А. Хәр заманға бир заман. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2005. 380 б.; Үсенов Е. Ийшан қала. Ғайры журтлардағы қарақалпақлар. Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. – 48 б.

²⁹ Бабашев Ш. Дөхмет дегиши. Нөкис: Қарақалпақстан, 2009, 348 б.; Бабашев Ш. Өлимге хўким етилген Абдижамий ахун ақланды. Нөкис: 2011, - 24-б.

³⁰ Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпакстана (1916-1991). – Учебное пособие. –Нукус: КГУ, 2020. – 183 с.

³¹ Қощанов Б.А., Изимбетова Г.Т., Зинатдинов Н.К. Политика советской власти в отношении мусульманского духовенства в Каракалпакстане (1917-1941 гг.). Нукус, Илимпаз. 2021. – 148 стр.

³² Абдуллаева Я. Қарақалпақстан ҳаял-қызлары: кеше хэм бүгин (XIX әсирдин ақыры хэм XX әсир). Нөкис. «Қарақалпақстан». – 2010. 224 б.

³³ Карлыбаев М.А. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. – Нукус: Илим, 2021. – 274с.

³⁴ Нуржанов С.У. История периодической печати Каракалпакстана (1925-1953 гг.). Нукус, Илим. 2023. – 189 стр., Нуржанов С. Отражение антирелигиозной политики советской власти в периодической печати Каракалпакстана в 30-годы XX века // Ўзбекистонда тарих фани: муаммолар ва ривожланиш истикболлари // Тарихшунослик ўқишлари-2017. Конференция материаллари. Т.; Akademnashr – 2018, 226-234-бб.

dindan o‘z hokimiyatini mustahkamlash va ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida Islom bilan kelishish yo‘llarini topishga urinishlari bilan tavsiflanadi; 2) hokimiyat va din o‘rtasidagi qarama-qarshilik, dinni bostirishga urinishlar (1920-yillarning o‘rtalaridan Ikkinchi jahon urushi boshigacha); 3) uchinchi bosqich 1943-1964-yillar; 4) hukumat va din o‘rtasidagi qarama-qarshilik yangi davr, 1960-yillar o‘rtalaridan 1980-yil o‘rtalarigacha qamrab oladi; 5) Gorbachyovning “qayta qurish” davridan SSSR qulashigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotchi o‘zi o‘rganayotgan davrni ikki bosqichda – 1943-1953-yillar va 1954-1964-yillarga bo‘lib o‘rganadi.

Urush arafasida, SSSRdagi aholini ro‘yxatga olish paytida, 9 ta asosiy din qayd etilgan, ular orasida ko‘pchilik pravoslavlikka rioya qilgan, Islom dinining izdoshlari e‘tiqodlilar soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinda bo‘lgan³⁵. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan Sovet hukumati fashizmga qarshi kurashga aholining barcha qatlamlarini jalb qilish maqsadida dinga bo‘lgan pozitsiyasini keskin o‘zgartirdi³⁶. Harbiy harakatlar boshlanishi bilan ruhoniylar o‘zlarining qo‘llab-quvvatlashlarini namoyon qildilar va birinchi juma kuni (1941-yil 27-iyun) Toshkent, Samarqand, Buxoro va O‘zbekistonning boshqa shaharlarida yopiq masjidlar yonida juma namozini o‘qishdi. Bu hukumat va xavfsizlik idoralari tomonidan ijobiy qabul qilindi³⁷. SSSR musulmonlari Markaziy diniy boshqarmasi muftiyi Gabdirahman Rasulev mamlakatning barcha musulmonlariga murojaat qilib, barchani o‘z Vatanini himoya qilishga, jang qilayotganlar uchun ibodat qilishga chaqirdi³⁸. “Barcha musulmon masjidlariga” murojaati 1941-yil 2-sentabrda nashr etilgan³⁹. Bu davlatning dinga bo‘lgan munosabatida burilish nuqtasi bo‘ldi.

Birinchi navbatda 1941-yil iyun oyidan boshlab “Безбожник” jurnali va uning turli respublikalarda har xil atamada nashr etiladigan va unga o‘xshash barcha nashrlar yopildi. Garchi 1941-yildan 1945-yilgacha mamlakat mudofaasi bilan bog‘liq bo‘lmagan deyarli barcha davriy nashrlar yopilgan edi⁴⁰. O‘zbekistonda 1940-yilning birinchi yarmida dinga qarshi xarakterdagi 170 ta nashr chop etildi⁴¹. 1941-yil oktabrda respublikada dinga qarshi nashrlar yopildi, dindorlarni ta‘qib qilish to‘xtatildi⁴².

Qoraqalpog‘istondagi musulmon ulamolari ham mamlakat mudofaasi bilan harakatlarga faol qo‘shilishdi. Ba‘zi ulamolarning farzandlari ham frontga ketganligini ta‘kidlash muhimdir. SADUMning Qoraqalpog‘istondagi vakili Salmen eshon Kamalovning yolg‘iz o‘g‘li ham 1942-yilda frontga safarbar qilingan va vafot etgan⁴³. Xalq orasida mashhur Uvais maxsim Olautdinov 1943-1944-yillarda harbiy

³⁵ Халидова О.Б. Религия, духовенство и государство в годы великой отечественной войны в СевероКавказском регионе // Вестник института ИАЭ. 2016. № 3. С. 58.

³⁶ Йўлдошхўжаева Х., Қаюмова И. Ўзбекистон уламолари. Тошкент. Movaqounnahr. 2015, 28-бет

³⁷ Россия - Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII - начале XXI века. М.: Издательство Московского университета; 2013. С. 323-324.

³⁸ Ибрагимов Р.Р. Власть и религия в Татарстане в 1940-1980-е гг. – Казань, - 2005. С. 66.

³⁹ Гусева Юлия Николаевна. Мусульмане Поволжья в советский период отечественной истории: на материалах Нижегородской, Самарской, Ульяновской областей: дис. ... д-ра ист. наук. Москва, 2013. С. 428.

⁴⁰ Салмонов А. Ўзбекистонда совет хокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Т.: Tafakkur, 2015. 99-б.

⁴¹ Мустафаева Н.А. Мустамлака ва совет даври тарихшунослигида Ўзбекистоннинг XX аср маданияти: // Тарих фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2016. 218-219-бб.

⁴² Тузов Н.В. Религиоведение: учеб. пособие. – 2-е изд. – М.: «Палеотип», 2006. С. 101.

⁴³ Ramatullayev M. Dala yozuvlari. 2021-yil. №6. Informator A‘bdigapparov A‘bdiqa‘dir, Chimboy tumani.

operatsiyalarda qatnashgan, qaytib kelganidan keyin Kegeyli tumanida ombor mudiri bo‘lib ishlagan⁴⁴. Purxon eshon Qayipnazarovning ukasi Paxratdin 1942-yil 18-iyunda Chimboy harbiy komissariati tomonidan chaqirilgan va ikki yildan so‘ng frontda qahramonlarcha vafot etgan⁴⁵.

1929-yilda SSSR SNK partiyasi Markaziy qo‘mitasining diniy tashkilotlar faoliyatini cheklovchi “Diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan edi. Urush arafasida bu masalalar bilan faqat NKVDning maxsus bo‘limi shug‘ullangan⁴⁶. Harbiy harakatlar boshlanishi bilan O‘rta Osiyo musulmon ulamolari faollashadi. Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon 1942-yil oxiri 1943-yil boshlarida bir necha bor yuqori sovet partiyaviy organlariga murojaat qildi, natijada 1943-yil 31-iyulda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy boshqarmasi (SADUM)ni tashkil etishga ruxsat berdi⁴⁷. O‘sha yilning oktabr oyida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari vakillarining qurultoyi bo‘lib o‘tadi va Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon SADUM muftiysi etib saylandi⁴⁸. S.Kamalov SADUMning Qoraqalpog‘istondagi vakili etib tayinlandi⁴⁹. Biroq bu lavozim 1947-yilda bekor qilinadi⁵⁰.

Dissertatsiyada ta’kidlanishicha, urush paytida Diniy boshqarma faoliyati birnechta yo‘nalishda olib borilgan. Birinchi yo‘nalish - SADUM vakillari shaxsiy jamg‘armalaridan mudofaa jamg‘armasiga 280 ming rubl, 4 million 117 ming rubllik Davlat zayom obligatsiyalari, 63 tonna bug‘doy, 90 ming bosh qoramol, front askarlari oilalariga 490 ming rubl miqdorida yordam berishdi⁵¹. 1944-1945-yillarda SADUMning Qoraqalpog‘istondagi vakili Salmen eshon Kamalovning sa’y-harakatlari bilan 31 882 rubl yig‘ildi, shundan 27 882 rubli tank kolonnasini tashkil qilishga beriladi. 1945-yilda ziyoratchilar tomonidan 13000 rubl yig‘ildi, bu summaning 3000 rubli Chimboy shahridagi masjidni ta’mirlash va yangilarini qurishga, qolganlari front askarlarining oilalariga yordam uchun sarflandi⁵².

Ikkinchi yo‘nalish - dindorlar yuqori hokimiyat organlari va SADUMga masjidlar va ibodat uylari ochilishiga, Haj qilish uchun ziyoratlarga ruxsat berish iltimosi bilan murojaat qilishdi⁵³. Urush paytida, 20 yillik ta’qiqdan so‘ng, masjidlar va ibodat uylari qonuniy ro‘yxatdan o‘tmasdan ochila boshlanadi⁵⁴. Faqat 1944-1945-yillarda masjidlar va ochiq ibodat uylarini ro‘yxatdan o‘tkazishga ruxsat berildi⁵⁵. Yangi masjidlarning ochilishi SSSR XKKengashining 1943-yil 28-

⁴⁴ Йўлдошхўжаев Х., Қаюмова И. Ўзбекистон уламолари. Т.: Movaraunnahr. – 2015, 260-б.

⁴⁵ Эбдимуратов Т. Репрессияға ушыраған уламалар. Н: Қарақалпақстан, 1992. 34-б.

⁴⁶ Халидова О.Б. Религия, духовенство и государство в годы Великой Отечественной Войны в Северо-Кавказском регионе // Вестник института ИАЭ. 2016. № 3. С. 58-59.

⁴⁷ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 5-ish, 38-б.

⁴⁸ Ўзбекистон, Тожикистон, Туркманистон, Қирғизистон ва Қозоғистон ССРдаги мусулмон рухонийлари ва диндорларининг съезди // Қизил Ўзбекистон газетасы. 1943-жыл 22-октябрь.

⁴⁹ Qoraqalpog‘iston Musulmonlari qoziyatidan Qoziyatning tarixi haqida olingan ma'lumot.

⁵⁰ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 112-ish, 25-б.

⁵¹ Салмонов А.М. Ўзбекистонда мусулмон диний муассаса ва ташкilotлар фаолияти тарихи (1917-1950 йиллар): // Тарих фан. ном... дисс. – Тошкент, 2008. 99-б.

⁵² О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 5-ish, 34, 35-бб.

⁵³ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 53-ish, 6-б.

⁵⁴ Одинцов М.И., Кочетова А.С. Конфессиональная политика в Советском Союзе в годы Великой Отечественной войны 1941-1945 гг./Михаил Одинцов, Анна Кочетова. М.: Научно-политическая книга; Политическая энциклопедия, 2014. С. 111; О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 53-ish, 2,2б-бб.

⁵⁵ Сулаев И. Х. Мусульманское духовенство Дагестана и власть: история взаимоотношений (1917-1991 гг.): // Автореф. дис... докт. ист. – Махачкала. ДГУ. 2010. С. 47.

noyabrda "Cherkovlarni ochish qoidalari to'g'risida" va 1944-yil 19-noyabrda «Diniy kullarning ibodat binolarini ochish tartibi to'g'risida» gi qarorlari bilan tartibga solingan⁵⁶. Aholi O'zbekiston hukumatiga masjidlar ochish iltimosi bilan murojaat qila boshladi, bunday murojaatlar 93 ta bo'lgan, ammo respublika SNK 1944-yil iyun-iyul oylarida atigi 8 ta masjid, shu jumladan, Chimboyda "Xon masjid"ni ochishga ruxsat bergan⁵⁷. 1945-yilda O'zbekistonda 19 ta rasmiy ruxsat berilgan masjid mavjud bo'lib, ulardan uchasi Qoraqalpog'istonda edi⁵⁸. Urush oxiriga kelib SADUM 156 ta masjid faoliyatini boshqargan. O'zbekistonda 1946-yilda masjidlarining asosiy qismi va 7 ta mozor ochildi⁵⁹, shu jumladan To'rtko'ldagi masjid ham⁶⁰. O'sha paytda respublika hududida faqat 3 ta masjid rasman faoliyat ko'rsatgan (Chimboy, To'rtko'l va Xo'jaylida) va Sulton bobo mozori ochilgan⁶¹.

Ikkinchi paragraf 1946-1953-yillari Qoraqalpog'istonda diniy siyosat yo'nalishlari masalasini o'rganishga bag'ishlangan. Urushdan so'nggi dastlabki yillari Diniy boshqarma rasmiy ochilgan masjidlariga imom va kotiblarni tayinlash va shu masjidlar orqali diniy ishlarni olib borish ishini davom ettirdi.

Diniy boshqarmaning QQASSRdagi vakili Salmen eshon Kamalov Qoraqalpog'iston mintaqasida diniy ahamiyatga ega mozor va ziyoratgohlarni ochishga uringan, ammo SADUM yig'ilishi yechimiga binoan ro'yxatdan o'tgan 10 ta ziyoratgohi bo'lmagan mintaqada ushbu tashkilotning vakili lavozimi bo'lmasligi sabab, 1947-yili mart oyida ushbu lavozim tugatiladi⁶².

1940-yillar oxiri – 1950-yillar boshida QQASSR va Xorazm viloyati bo'yicha SADUM vakili lavozimi qayta tiklanadi. Masalan, 1951-1957-yillari SADUMning Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatidagi vakili bo'lib Rahmatulla Idrisov ishlagan. 1957-yili u Qohiradagi Al-Azhar universitetiga o'qishga ketganidan keyin, 1958-yili bu lavozimni Uvais Olautdinov, 1959-yil Raz maqsim egallagan⁶³.

1950-yillari o'rtalarida sovet hukumati va islom dini orasidagi munosabatlar keskinlashadi, ateistik targ'ibot-tashviqot ishlari va ma'muriy bosim kuchayadi. 1952-yili SSSR bo'yicha umuman ro'yxatga olingan masjidlar soni 351 ga yetgan bo'lsa, Xrushevning dinga qarshi kampaniyasi ohiri 1965-yilga kelib ularning soni 305 ga kamaygan.

Ikkinchi jahon urushi yillari va urushdan keyingi vaqt davomida bir qator yumshashlardan keyin, 1950-yillarda yana ulamolarni ta'qib qilish boshlandi. Ulamolalar josuslikda ayblangan va respublika tashqarisiga surgun qilingan. Ular orasida Salmen Kamalov, Bakir Razov, Purxon Qayipnazarov, Niyozimbet

⁵⁶ Фефилин С. В. Взаимоотношения государства и религиозных организаций в 40-х – середине 50-х гг. XX в.: На материалах Краснодарского края: // Диссер... канд. ист. н.: – Майкоп, 2002. С. 118.

⁵⁷ Юсупов Р.М. Ўзбекистонда XX асрнинг 40-80 йилларида мусулмон диний ташкилотлари ва уламолар фаолияти (МДА маълумотлари асосида). // Тар.фан.номз...дисс. - Андижан, 2008. 21-22-бб.

⁵⁸ Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимияти диний сиёсатининг фожиали оқибатлари (1917-1991-йиллар): Ўқув қўлланма. – Т.: Доно, 2020. 88-89-бб.

⁵⁹ О'МА, Р-2456, 1-ро'yxat, 114-ish, 55-b.

⁶⁰ О'МА, Р-2456, 1-ро'yxat, 271-ish, 34,39-bb.

⁶¹ О'МА, Р-2456, 1-ро'yxat, 271-ish, 34,39-bb.

⁶² О'МА, Р-2456, 1-ро'yxat, 112-ish, 25-b.

⁶³ Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyatidan Qoziyatning tarixi haqida olingan ma'lumot.

Mamutov, Qalimbet Utemuratov, Ollanazar Qosnazarov bor edi⁶⁴. S.Nurjanov arxiv va davriy nashrlar materiallari asosida Qoraqalpog‘istonda 1921-1928, 1929-1937 va 1938-1941-yillardagi dinga qarshi kurashning bir necha bosqichlarini belgilab beradi. Ularning har biri bu davrning butun jarayonini tavsiflaydigan dinga qarshi tashviqotning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi⁶⁵.

Salmen eshon Kamalov urushdan oldin bir necha bor hibsga olingan, 1951-yil 11-aprelda uchinchi marta hibsga olingan va O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58, 66 va 67-moddalari, 2-qismi bo‘yicha ayblangan va mulkni musodara qilish bilan otuvga hukm qilingan. Biroq, SSSR Oliy sudining 1952-yil 31-maydagi qarori bilan hukm 25 yilga ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirildi⁶⁶.

Ulamolarning yana bir vakili Qalimbet Oxun Utemuratov bo‘lib, u urush yillarida, Chimboydagi masjid ochilganda, u imom etib tayinlandi: “...1943-yilda eshon Babaxon Chimboy masjidiga kelib, qog‘oz uzatdi va men imom bo‘lishimni aytdi. Men yeti yil davomida ushbu masjidning imomi edim”⁶⁷ - deb eslaydi Qalimbet oxunning o‘zi. Biroq, 1951-yilda u hibsga olingan va 1952-yil 10-aprelda Turkiston harbiy okrugining harbiy tribunali uni 25 yilga ozodlikdan mahrum qilgan. Suddan so‘ng, u Irkutskka, majburiy mehnat lageriga yuborildi, u yerda 1956-yil 9-maygacha bo‘lgan. Qamoqdan ozod qilish to‘g‘risidagi hujjatda 1955-yil 17-dekabr sanasi ko‘rsatilgan⁶⁸.

Purxan eshon Qayipnazarovning taqdiri ham xuddi shunday edi. 1928-yilda u ta‘qiblardan qochib, Eronga qochib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq, u vataniga deportatsiya qilingan va 1951-yil avgustgacha kolxozchi bo‘lib ishlagan⁶⁹. 1951-yil 9-avgust kuni hibsga olingan va 1952-yil 10-aprel kuni, u mol-mulkini musodara qilish bilan «otuvga» hukm qilindi⁷⁰. Ko‘plab murojaatlar va shikoyatlardan so‘ng uning ishi ko‘rib chiqildi va 1958-yil 1-aprelda u to‘liq oqlandi⁷¹.

Qoraqalpog‘istondagi yana bir taniqli musulmon dini xizmatchisi Allanazar Oxun Qosnazarovdir. U birinchi marta 1931-yilda hibsga olingan va Chimboy qamoqxonasida o‘n bir oylik hibsdan so‘ng uch yilga ozodlikdan mahrum qilingan. U mehnat axloq tuzatish lageriga yuborilgan va Allanazar Oxun Belamor-Boltiq kanali qurilishida o‘z jazosini o‘tagan. Qaytib kelgach, u Chimboyga o‘rnashadi, quruvchi sifatida ishga joylashdi, ammo NKVD uni yana hibsga oldi va 1936-yilda u besh yilga koloniyaga hukm qilindi. Muddat tugagandan so‘ng, u frontga borishga harakat qiladi, lekin uni rad etishdi. 1945-yilda Xo‘jaylidagi masjid imomi etib tayinlangan. 1951-yilda u uchinchi marta hibsga olingan va mol-mulki musodara qilingan holda 25 yilga ozodlikdan mahrum etilgan. Uni Qarag‘andadagi

⁶⁴ Қарақалпақстан XIX әсирдің екінші ярымынан XXI әсирге шекем. – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2003. 245-б.

⁶⁵ Нуржанов С. История периодической печати Каракалпақстана (1925-1953 гг.). – Нукус, 2023. С.65.

⁶⁶ SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasining № 1 – 040-p/52 sonli Aniqlamasi (nusxasi) // Salmen eshonning nabirasi Abduqodir Abdug‘afur o‘g‘lining uy arxividan.

⁶⁷ Qalimbet oxunning 1990-yil Qoraqalpog‘iston telekanaliga bergan intervyuidan. Azat Qalimbetovning uy arxividagi videodan.

⁶⁸ Q.Utemuratovning SSSR Oliy Sudi Raisi Gorkinga yozgan arizasi nusxasidan. Olimjon Qalimbetovning uy arxividan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Chimboy tumani.

⁶⁹ Әбдимуратов Т. Репрессияға ушыраған уламалар. Н: Қарақалпақстан, 1992. 47-48-бб

⁷⁰ SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasining № 1 – 040-p/52 sonli Aniqlamasi (nusxasi) // Salmen eshonning nabirasi Abduqodir Abdug‘afur o‘g‘lining uy arxividan.

⁷¹ Әбдимуратов Т. Айыпсыз болса да айыплы болған // Совет Қарақалпақстаны: 1991 йил, 2 август.

konlarga yuborishadi. Ko‘plab murojaat va shikoyatlardan so‘ng, muddat 15 yilga qisqartirildi. Stalin vafotidan keyin, 1956-yilda uning ishi ko‘rib chiqildi va jinoyat alomatlari yo‘qligi uchun ish to‘xtatiladi. Qaytib kelganidan keyin Xo‘jayli masjidida imom bo‘lib xizmat qilgan. Ulamolarni ta‘qib qilishning yangi to‘lqini boshlanganda, Allanazar Oxun turkmanlarga ko‘chib o‘tadi⁷². 1984-yilda Xo‘jayli tumaniga qaytib, 1991-yilda vafot etdi⁷³.

Dissertant dala tadqiqotlari davomida Qoraqalpog‘istonda ulamolarning ta‘qib qilinishidan dalolat beruvchi og‘zaki tarix materiallari to‘plamini yig‘adi. Dissertatsiyada Sherniyaz Seitmuratov⁷⁴, Ziyautdin Saipzadev⁷⁵, Sayit Maqsim, Kegeylidan Xojan Oxun Aqimbetov va boshqalar haqida ma‘lumot berilgan.

Uchinchi paragraf 1940-1960-yillarda qoraqalpog‘istonlik musulmonlarning Haj qilish masalasiga bag‘ishlangan. Dissertatsiyada ta‘kidlanishicha, uzoq tanaffusdan so‘ng, 1944-yilda Davlat O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlariga Makkaga haj qilishga ruxsat bergan⁷⁶. Ro‘yxatga 6 nafar ziyoratchi kiritilgan: 4 nafar o‘zbekistonlik, bittadan Tojikiston va Qozog‘iston fuqarolari⁷⁷, ular orasida Qoraqalpog‘istonning Shabboz tumanidan Janabay Abulxayirov ham bor edi⁷⁸. Keyinchalik respublikamizdan o‘sha paytda Shabboz tumani «Sultan-bobo» ziyoratgohidagi asosiy shayx bo‘lgan Rahmatulloh Idrisov Makkaga haj qildi⁷⁹.

Biroq, hammaga ham hajga borishga ruxsat berilmagan. Masalan, 1955-yilda Uvais Olauatdinov SADUM tomonidan taklif qilingan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan, ammo unga ruxsat berilmagan⁸⁰. Keyingi yili yana uning ismi, shuningdek, Rizo Nagzitdinov va Sherniyaz Irdjanov talabgorlar ro‘yxatiga kiritilgan, ammo yakuniy ro‘yxatda faqat Rizo Nagzitdinov bor edi⁸¹.

Rizo Nagzotdinov (Nagizov), 1912-yilda tug‘ilgan, asli Kegeyli tumanidan bo‘lgan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan, urushdan oldin SSSR paxta ilmiy-tadqiqot institutining Qoraqalpoq tajriba stantsiyasida agrotexnik bo‘lib ishlagan, urush ishtirokchisi. 1943-yilda u avvalgi ishiga qaytdi va 1955-yilgacha ishladi. VDNXda qatnashgan, medallari bor edi. Makkaga haj qilish uchun ariza topshirish paytida Shabboz tumanidagi Sulton bobo ziyoratgohida imom-noib edi⁸².

Dissertatsiyada ziyoratchilar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslar, jumladan, Qallixoja Abdramanov, Uvais Olautdinov, Sherniyoz Irdjanov, Aytmuxammad Irmuxamedov, Abdulg‘afur Abdulxakimov, Abdullatif Begdullaev va boshqalar keltirilgan. Ko‘rib turganingizdek, ular orasida ziyoratchilar ro‘yxatiga kiritish uchun uch marta

⁷² Отеўлиев Ө. Хўждан хэм хўким. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1992. 65-79-66.

⁷³ Karlybaev M., Muminov A. Allah-Nazar Khush Nazar uly // The Encyclopedia of Islam 3. Ed. by Kate Fleet and others Leiden-Boston. BRILL. 2012. Pp. 61-62

⁷⁴ SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasining № 1 – 040-p/52 sonli Aniqlamasi (nusxasi) // Salmen eshonning nabirasi Abduqodir Abdug‘afur o‘g‘lining uy arxividan.

⁷⁵ SSSR Oliy Sudi Harbiy kollegiyasining № 1 – 040-p/52 sonli Aniqlamasi (nusxasi) // Salmen eshonning nabirasi Abduqodir Abdug‘afur o‘g‘lining uy arxividan.

⁷⁶ Саидбаев Т.С. Ислам и общество. 196-бет

⁷⁷ Ахмадуллин В. Деятельность Советского государства по организации Хаджа советских мусульман в 1944 г. // Власть, 2016. № 6. С.163

⁷⁸ О‘МА. P-2456, 1-ro‘yxat, 165-ish, 5-b.

⁷⁹ О‘МА. P-2456, 1-ro‘yxat, 165-ish, 79-b.

⁸⁰ О‘МА. P-2456, 1-ro‘yxat, 176-ish, 23-b.

⁸¹ О‘МА. P-2456, 1-ro‘yxat, 194-ish, 29-b.

⁸² О‘МА. P-2456, 1-ro‘yxat, 194-ish, 49-b.

murojaat qilgan, ammo muvaffaqiyatsiz bo‘lgan Uvais Olautdinov ham bor edi. Faqat mustaqillik yillarida u o‘z niyatini amalga oshirdi.

Uvais Olautdinov 1923-yil QQASSR Kegayli tumanida tug‘ilgan. 1938-yilda yetti yillik maktabni tugatgach kolxozchi bo‘lib ishlagan, urush ishtirokchisi. 1949-1958-yillarda Buxorodagi Mir-Arab diniy bilim yurtida, keyin Toshkentdagi Baroqxon diniy bilim yurtida tahsil olgan. 1958-yilda Xorazm viloyati va QQASSR uchun muxtasib lavozimiga tayinlandi va u yerda 1959-yilgacha ishladi. Bu lavozim tugatilgach, Sulton bobo mozoriga shayx lavozimiga o‘tkazildi⁸³.

Dissertantning ta’kidlashicha, keyingi-yillarda ziyoratchilar uchun kvota keskin kamayadi. 1961-yilda ziyoratchilar ro‘yxatida 100 kishidan atigi 6 nafari ketishga ruxsat berilgan, ruxsat esa SSSR hukumati va xavfsizlik idoralari tomonidan berilgan⁸⁴.

3-bob **“1954-1964-yillari Qoraqalpog‘istondagi hukumat idoralari bilan dindorlar orasidagi munosabatlar”** deb nomlanib, u 3 paragrafdan iborat.

Birinchi paragraf shu davrda Qoraqalpog‘istonda dindorlarga bo‘lgan munosabat va ateistik targ‘ibotning kuchayishini tadqiq etishga bag‘ishlangan. 1954-yili 7-iyul kuni KPSS MKning “Ilmiy-ateistik targ‘ibot ishlaridagi katta kamchiliklar va ularni bartaraf etish haqida” qarori qabul qilinadi.

Bu davrda ulamolarni ta’qib qilishda yangi burilish yasaldi. Endi hokimiyat ulamolarni ta’qib qilib, ularni omma oldida dindan voz kechishga majbur qildi. Shunday qilib, 1950-yillarning oxirida Qalimbet Oxunni ta’qib qilish yana boshlandi va uning dinni rad etish haqidagi nutqni yozib olishga majbur qilinadi, keyin u radioda bir necha bor efirga uzatiladi. 1959-yil aprel oyida To‘rtko‘l masjidi Imom-xatibi X.Jaksimovning 1959-yil iyul oyida mashhur oxun Abbaz Aleu o‘g‘li, 1960-yilda Sverdlov nomidagi sovxozda yashovchi nafaqaxo‘r Jaksimurat Paljanov⁸⁵ va boshqalarning shunga o‘xshash iqrorlari gazeta sahifalarida e’lon qilinadi.

Hokimiyat ta’qibidan yashirilib, respublikadan tashqariga ko‘chib ketganlar ham bor edi. Dissertatsiyada bu odamlarning taqdiri aks ettirilgan materiallar berilgan. Informatorlar Perdebay maxsim Umrzaqovning bobosi Aximbetov Xojan oxun, onasi tarafdin bobosi Qosekeev Tajimurat oxunlar haqidagi⁸⁶, Jalolatdin Abdurazaqovning Abdurazoq Sulaymon eshon o‘g‘li haqidagi⁸⁷ ma’lumotlari dissertatsiyada keltirilib o‘tiladi.

Dissertatsiyada odamlarning fojiali taqdirlari haqida ko‘plab dalillar keltirilgan bo‘lib, buxorolik Niyoz Muhammad Oxunning avlodlari bundaylar orasida bo‘lgan⁸⁸. “Niyoz Muhammad Oxunning avlodlaridan biri uning yagona o‘g‘li Abdullohdan 6 bola bo‘lib, ularning avlodlari hali ham Qoraqalpog‘iston hududida yashaydi: «1924-yilda bolsheviklar Xorazmning oxirgi Shayxul-Islom Muhammad Sharif Oxunni samolyotdan tashlab o‘ldirdilar. 1937-1938-yillarda mening ajdodlarim Abduraman eshon va Dovut eshon otib o‘ldirilgan, 1940-yillarda Buvaniyoz eshon va Fozil eshon Sibirga surgun qilingan va Matyoqub eshon 1955-yilgacha majburiy mehnat

⁸³ O‘MA, P-2456, 1-ro‘xat, 240-ish, 69-b.

⁸⁴ Алимова Д., Шадманова С. Из истории паломничества мусульман Центральной Азии в Мекку (конец XIX – начало XXI вв.) // Ўзбекистон тарихи. Ташкент, 2011. № 1. 59-60-66.

⁸⁵ Базарбаев Ж. Ёўлийеликлердин сырлары. Нөкис. 1972. 6-б.

⁸⁶ Ramatullayev M. Dala yozuvlari. 2023-yil. №8. Informator Perdebay Umirzaqov, Nukus tumani.

⁸⁷ Ramatullayev M. Dala yozuvlari. 2023-yil. №9. Informator Jalolatdin Abdurazaqov, Nukus shaxri.

⁸⁸ Шермухамедов П. Мехрнинг олис йўллари. Тошкент, 2006. 8-12-66.

batalonida ishlagan. Bu yerda qolgan qismi Turkmanistonga ko‘chib o‘tdi va shu kungacha qarindoshlarimizning 30-40 foizi u yerda yashaydi»⁸⁹.

1956-yilda N.Xrushev hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng, hokimiyat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlarni yumshatib, siyosiy va mafkuraviy liberallashtirish mavjud edi. Dinga qarshi kurash usullari bir-biriga zid bo‘lib qoldi, bir tomondan «ziyoratgohlarga ziyorat» taqiqlandi, ammo ulamolarga qarshi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatag‘onlar to‘xtatildi⁹⁰.

KPSS Markaziy qo‘mitasining 1960-yil 13-yanvardagi va O‘zbekiston SSR Markaziy qo‘mitasining 1960-yil 4-fevraldagi “Ruxoniylar tomonidan qonunchilikning buzilishining oldini olish to‘g‘risida” qarorlarida sovet hukumatining diniy siyosat sohasidagi strategiyasi belgilab berilgan. Keyinchalik, ushbu qarorning qoidalari amalda qo‘llash uchun barcha universitetlarning o‘quv dasturlariga majburiy imtihonlar bilan «ilmiy ateizm» fani kiritildi⁹¹.

Ikkinchi paragraf QQASSR Vazirlar Kengashi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Dissertant ta’kidlashicha, SSSRda bunday qo‘mita 1943-yil 14-sentabrda tuzilgan va SSSR SNK huzuridagi din ishlari bo‘yicha Kengash deb nomlangan. Avvaliga uni I.V. Polyanskiy, keyin A.A.Puzin boshqargan. Joylarda Kengash masullari ishlaganlar. Shunday qilib, O‘zSSR SNKning 1944-yil 9 avgustdagi «Din ishlari bo‘yicha Kengashning muxtor (vakolatli) vakillari to‘g‘risida»gi qaroriga binoan vakil lavozimi ta‘sis etildi⁹². QQASSR bo‘yicha S.Allaniyazov tayinlanadi⁹³. O‘rganilayotgan davrda mazkur lavozimda A.Irmanov⁹⁴, Davletov⁹⁵, 1962-yili D.Erekeshov⁹⁶ turli vaqtlarda ishlagan.

Din ishlari bo‘yicha Kengash komissari respublikadagi barcha diniy tashkilotlar faoliyatini nazorat qildi, barcha masjidlar, mozorlar, ziyoratgohlar, ziyoratgohlarni qayd etadi. Komissarlarning texnik topshiriqlari SSSR SNK huzuridagi din ishlari bo‘yicha Kengashning 8 qismdan iborat xatida belgilangan. Bunda yangi masjidlar ochish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish, diniy birlashmalarni ro‘yxatga olish, masjid binosini diniy jamoatga foydalanishga berish to‘g‘risida shartnoma tuzish, diniy marosimlarni o‘tkazishda hukumat qarorlarining bajarilishini nazorat qilish, din ishlari bo‘yicha kengashlarni va boshqa organlarni ulamolarni faoliyati to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish qoidalari to‘g‘risida tushuntirishlar berilgan⁹⁷. Joylarda imomlar faqat Kengash va uning vakili roziligi bilan tayinlangan. Shunday qilib, 1946-yilda Kengashning To‘rtko‘lda masjid ochishga ruxsatidan keyin Qulmuxammad Adinaev Imom, Qalander Saidadilov muazzin etib tayinlanadi⁹⁸.

⁸⁹ Ramatullayev M. Dala yozuvlari. 2023-yil. № 16. Informator Abduraxim hoji Aminjon eshon o‘g‘li, Beruniy t.

⁹⁰ Сайтов А. Социальный портрет личности в воспоминаниях в послевоенный период Каракалпакстана // «Трансформация социальных установок в Каракалпакском обществе: история и практика» (сборник статей). Нукус, 2020. С. 112.

⁹¹ Салмонов А. Ўзбекистонда Совет ҳокимияти диний сиёсатининг фожиали оқибатлари (1917-1991 йиллар): Ўқув қўлланма. Тошкент, Доно. 2020. 107-б.

⁹² Юсупов Р.М. Ўзбекистонда XX асрнинг 40-80 йилларида мусулмон диний ташкилотлари ва уламолар фаолияти (МДА маълумотлари асосида) // Тарих фан. ном. ... дисс. – Андижон: 2008. –21-б.

⁹³ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 78-ish, 3-b.

⁹⁴ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 112-ish, 25-b.

⁹⁵ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 112-ish, 10-b.

⁹⁶ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 326-ish, 122-b.

⁹⁷ Юсупов Р.М. Ўзбекистонда XX асрнинг 40-80 йилларида мусулмон диний ташкилотлари ва уламолар фаолияти (МДА маълумотлари асосида) // Т.ф.н. дисс... - Андижан, 2008. 19-20-бб.

⁹⁸ О‘МА, Р-2456, 1-ро‘ухат, 114-ish, 4-8-бб.

1947-yilda Qalimbet oxun Utemuratov «Xon Masjidi»da imom, Salmen eshon Kamalov xatib, Ziyauitdin Saypadiyev muazzin etib tayinlanadi. Dissertant ushbu amaliyot keyingi yillarda davom ettirilganligini ta’kidlaydi.

Uchinchi paragraf dinga qarshi faol ritorika va din va uning noto’g’ri qarashlariga qarshi kurash bo’yicha amaliy chora-tadbirlar bilan shug’ullangan «Bilim» jamiyati va Respublika ma’ruzalar byurosi faoliyatini o’rganishga bag’ishlangan.

O’rganilayotgan davrda sovet partiya apparati dinni ta’qib qilishning zaiflashishi bilan bir vaqtda targ’ibot apparatini faol ravishda kuchaytira boshladi. Shunday qilib, maqsadli targ’ibot ishlarini olib borish uchun 1943-yil 31-iyulda SSSR XKS huzuridagi Oliy maktab ishlari qo’mitasi huzurida Lektsiya byurosi tuzildi⁹⁹. 1944-yil 27-sentabrda partiya Markaziy qo’mitasining «ilmiy va ma’rifiy tashviqotni tashkil etish to’g’risida»gi qarori qabul qilindi¹⁰⁰, unda dinning ta’siri kuchayishi sababli aholi o’rtasida tabiiy fanlar bo’yicha bilimlarni targ’ib qilishni takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi. 1945-yil 2-sentabrda ma’ruzalar byurosi SSSR XKS huzuridagi Oliy ta’lim qo’mitasi huzuridagi Butunittifoq ma’ruzalar byurosiga aylantirildi va tez orada SSSR Oliy ta’lim vazirligiga o’tkaziladi. Va 1947-yil 7-iyuldan boshlab u o’z faoliyatini to’xtatdi va yangi tashkil etilgan Butunittifoq siyosiy va ilmiy bilimlar jamiyati tarkibiga qo’shildi (1963-yilda u Butunittifoq «Bilim» jamiyati deb qayta nomlanadi)¹⁰¹. Uyushma, SSSR aholisi o’rtasida ma’ruzalar o’qish orqali ma’rifiy faoliyat va dinga qarshi targ’ibot bilan, shuningdek, tegishli ilmiy-ommabop adabiyotlarni nashr etish shug’ullangan. Tashkil qilinishining sabablaridan biri 1947-yilda Jangovor ateistlar Ittifoqining tugatilishi bo’lib, uning ateistik dinga qarshi targ’ibot sohasidagi vazifalari «Bilim» jamiyatiga topshirilgan edi¹⁰².

1947-yil 23-may kuni mahalliy respublika yig’ilishida O’zbekiston olimlari va madaniyat arboblarning siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatish jamiyatini tashkil yetish to’g’risidagi murojaati e’lon qilindi. Akademik T.A.Sarimsaqov boshchiligidagi tashkiliy qo’mita tuzildi va tez orada QQASSRning 19 vakili bo’lgan ushbu jamiyatning to’liq a’zolari tasdiqlandi. 1948-yil 1-yanvarda QQASSRda U.Shalekenov boshchiligidagi viloyat qo’mitasi ochildi¹⁰³. 1960-yillarda «ilmiy ateizm» davri boshlandi, o’shanda barcha universitetlarda «ilmiy ateizm» fani majburiy bo’lib, maxsus kafedralar ochildi. «Bilim» jamiyati tarkibida ilmiy va ateistik bilimlarni targ’ib qilish bo’limi tashkil etiladi.

Uyushma turli mavzulardagi barcha nashrlarni to’pladi, bu yerda ma’ruzalar matnlari tayyorlandi va respublikaning shahar va tumanlarida, muassasa va idoralarda, kolxoz va sovxozlarda Jaytauov boshchiligidagi ma’ruzachilar guruhi paydo bo’ldi. Ma’ruzalarning mavzulari dinga qarshi targ’ibot va ateistik tashviqotga bag’ishlangan

⁹⁹ СССР Халк Комиссарлар Кенгашининг 1943 йил 31 июлдаги 845-сонли «СССР Халк Комиссарлари Кенгаши хузуридаги Олий мактаб ишлари бўйича қўмита қошидаги лекция бюроси тўғрисида»ги қарори // Халк Комиссарлари Кенгашининг 1943 йил июль учун қарорлари. – М., 1943. – С. 160.

¹⁰⁰ ВКП ЦК (б) нинг илмий-маърифий тарғиботни ташкил этиш тўғрисидаги қарори. 1944 йил 27 сентябр. // КПСС Марказий Кенгашининг қурултойлари, конференциялари ва пленумлари қарорлари (1941-1954). Т. 6. М., 1971, 121-123-бб.

¹⁰¹ Федирко О.П. Деятельность Всероссийского общества «Знание» по распространению научно-атеистических идей на Дальнем Востоке СССР//Религия в истории народов России и Центральной Азии. // материалы II международной научной конференции. – Барнаул: Изд-во Алт. Ун-та, 2014. С. 99.

¹⁰² Абаев С. Уллы Октябрь хэм Қарақалпақстанда атеизмнің раўажланыўы. – Н: Қарақалпақстан 1984. 33-б.

¹⁰³ О’МА, Р-2344, 1-ро’ухат, 42-ish, 79-б.

edi. Keyingi davrda ma'ruzachilar nutqining asosiy mavzulari «Marksizm-leninizm din haqqida», «Sovet xalqı sanasında kapitalizmge qarsı gúres», «Dinniń kelip shıǵıwı hám reakcion mánisi» va boshqalar bo'lgan¹⁰⁴.

Uyushmaning filiallari barcha tumanlarda tashkil etilgan bo'lib, lektorlarning asosiy qismi (269 kishidan) o'qituvchilar, olimlar va Sovet partiyasi xodimlaridan iborat edi. Birgina 1953-yilda 168650 kishini qamrab olgan 2330 ma'ruza o'qilgan¹⁰⁵. Bundan tashqari, olimlar, tashviqotchilar va targ'ibotchilar, ma'ruzachilar respublika matbuoti sahifalarida tez-tez chiqib turishar edi: 1950-yillarning oxiri – 1960-yillarning boshlarida dinga qarshi xarakterdagi 250 ta maqola nashr etildi¹⁰⁶. Ilmiy ateizm muhim ilmiy mutaxassislikka aylanib bordi, 1964-yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali Tarix, Arxeologiya va Etnografiya institutida ilmiy ateizm sektori ochildi.

Dissertant «Bilim» jamiyatining asosiy vazifasi dinni davlatdan ajratish, mafkuraviy «to'g'ri» qoidalarni o'rnatish orqali aholini diniy xurofotlardan uzoqlashtirish ekanligi ta'kidlangan.

XULOSA

1. Din asrlar davomida xalqimizning milliy-madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ma'naviy va madaniy hayotimizda muhim o'rin tutgan. Hattoki bolsheviklar boshchiligidagi mamlakatimizda Sovet hokimiyati o'rnatilganining dastlabki yillarida ham din o'z ta'sirini saqlab qolgan edi. Bolsheviklar tomonidan Qoraqalpog'iston xalqiga qarshi olib borilgan dinga qarshi kurash, birinchi navbatda, ulamolarga qarshi qatag'onlar bilan birga kechib, 1930-yillarda o'z cho'qqisiga chiqqanligi ko'rsatib o'tildi.

2. Sovet hukumatining dinga munosabatida bir necha bosqichlar belgilab o'tildi: 1) Sovet hokimiyati o'rnatilganining dastlabki 7-8 yili, yangi hukumatning dindan o'z hokimiyatini mustahkamlash va Islom bilan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida kelishish yo'llarini topishga urinishlari bilan tavsiflanadi; 2) din va hokimiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik, dinni bostirishga urinishlar (1920-yillarning o'rtalaridan Ikkinchi jahon urushi boshlanishigacha); 3) uchinchi bosqich 1940-yillardan 1950-yillarning o'rtalariga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi; 4) 1960-yillardan 1980-yillarning o'rtalariga qadar hukumat va din o'rtasidagi qarama-qarshilikning yangi bosqichi; 5) Gorbachyovning «qayta qurish» davridan SSSR parchalanishigacha bo'lgan davr.

3. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan davlat va din o'rtasidagi munosabatlar yumshatildi, dinga qarshi targ'ibot to'xtatildi. 1941-yil oktabrga kelib respublikada dinga qarshi barcha nashrlar yopildi va ulamolarni to'g'ridan-to'g'ri ta'qib qilish to'xtatildi. Muhim sabablardan biri ulamolarning asosiy qismini Sovet davlatining Vatanni fashistlardan himoya qilishga chaqirishi uchun qo'llab-quvvatlashi edi. Musulmon dini vakillari jangovar harakatlar boshlanganidan keyin birinchi juma namozini dushmanlar ustidan g'alaba qozonishga bag'ishladilar va barcha dindorlarni bosqinchilarga qarshi birlashishga chaqirdilar. Ba'zi diniy arboblardan yoki ularning qarindoshlari harbiy harakatlarda qatnashganlar. Din vakillari harakatdagi armiyani, shuningdek, aholining muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' va

¹⁰⁴ QR MDA, P-551, 1-ro'yxat, 6396-ish, 11-b.

¹⁰⁵ QR MDA, P-296, 1-ro'yxat, 18-ish, 12-13-bb.

¹⁰⁶ Абаев С. Атеизм в Каракалпакстане. Опыт и проблемы. Ташкент: Фан. 1987. С. 98-99, 101, 103.

narsalar yig'ish shaklida xayriya bilan faol shug'ullana boshlaganliklari haqida faktlar keltirildi.

4. 1943-yilga kelib Sovet davlati diniy birlashmalarning rasmiy tashkil etilishiga ruxsat berdi. 1943-yil 31-iyulda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi Markaziy Osiyo va Qozog'iston musulmonlarining diniy boshqarmasini (SADUM) tashkil etishga ruxsat berdi. O'sha yilning oktabr oyida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari vakillarining qurultoyi bo'lib o'tdi va Eshon Boboxon ibn Abdumajidxon SADUM muftiyi etib saylandi. Salmen eshon Kamalov SADUMning Qoraqalpog'istondagi vakili etib tayinlandi. Biroq, bu lavozim 1947-yilda bekor qilindi. Rahmatulla Idrisov 1951-1957-yillarda SADUMning Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatidagi vakili bo'lib ishlagan. Qohiradagi Al-Azhar universitetiga o'qishga ketganidan keyin, 1958-yil bu lavozimni Uvais Olautdinov, 1959-yil Raz maxsim egallaganligi hususidagi ma'lumotlar keltirildi.

5. 1943-1944-yillarda diniy muassasalarni ochish va ro'yxatdan o'tkazishni tartibga soluvchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 1944-yil iyun-iyul oylarida O'zSSR XKS 8 ta masjid, shu jumladan Chimboyda Xon masjidini ochishga ruxsat berdi. 1945-1946-yillarda Qoraqalpog'iston hududida rasman 3 ta masjid (1944-yil 8-mayda ochilgan Chimboydagi «Xon masjidi», 1946-yil 26-maydan buyon faoliyat yuritib kelgan To'rtko'ldagi masjid va Xo'jaylidagi masjid) va 1945-yili Sulton bobo mozori ochilganligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatildi.

6. Urush paytida masjidlar va namozxonalar qonuniy ro'yxatdan o'tmasdan ochila boshladi. Dissertant dala tadqiqotlari davomida bir qator eng ko'p tashrif buyuriladigan diniy muqaddas joylar – Beruniy tumanidagi «Darvesh eshon» masjidi, To'rtko'l tumanidagi «Abdujamil eshon» masjidi, Ellikala tumanidagi «Safu» masjidi, odatda juma kunlari ziyoratchilar va boshqa dindorlar juma namoziga yig'iladigan mozorlar, xususan, Chimboy tumanidagi Mardon ota, Qora'zak tumanidagi Oxun bobo, Taxtako'pir tumanidagi Qoboqli ota, Xalqobodagi Shayx Shibli, Shabboz tumanidagi Sulton bobo, To'rtko'l tumanidagi Norinjon bobo, Xo'jayil tumanidagi Nazlimxon suluv, Mo'ynoq tumanidagi To'qpoq ota, Qo'ng'iroq tumanidagi Hakim ota kabilarni aniqladi. Biroq, binolari omborlar, yotoqxonalar, tibbiyot markazlari, bolalar bog'chalari va boshqalar sifatida ishlatilgan masjidlar hali ham mavjud bo'lganligi aniqlandi.

7. 1950-yillarda ulamolarni ta'qib qilish yana boshlandi. Din vakillari josuslikda ayblanib, respublika tashqarisiga surgun qilingan. Ular orasida Salmen eshon Kamalov, Bakir eshon Razov, Purxon oxun Qayipnazarov, Niyazimbet oxun Mamutov, Qalimbet oxun Utemuratov, Ollanazar oxun Qosnazarov bor edi. Dissertant dala ishlari davomida Qoraqalpog'istonda dindorlarning ta'qib qilinishidan dalolat beruvchi og'zaki tarix materiallari to'plamini to'pladi. Dissertatsiyada Sherniyaz Seitmuratova, Ziyautdin Saipzadev, Sayit maxsim, Kegeylidan Xojan oxun Aqimbetov va boshqalar haqida ma'lumotlar berildi.

8. 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida dindorlarni ta'qib qilish yangi shaklga o'tdi. Sovet partiyasi organlari dindorlarni ta'qib qilib, hokimiyat ularni dindan voz kechishga majbur qildi. Sovet hokimiyati tuzilmalarining bosimi ostida din arboblari va oddiy dindorlar diniga qarshi tashviqot tomonidan ishlatilgan, gazetalarda nashr etilgan, kitoblar yozilgan va dinni «fosh qiluvchi» nashr etilgan

dindan voz kechishlarini e'lon qilishdi. Ba'zi dindorlar hokimiyat ta'qibidan yashirilib, respublikadan tashqariga ko'chib ketganligi keltirib o'tildi.

9. 1944-yilda davlat Makkaga O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlariga ziyorat qilishga ruxsat berdi. Birinchi ro'yxatga 6 ziyoratchi kiritilgan: O'zbekistondan 4, Tojikiston va Qozog'istondan bittadan, ular orasida Qoraqalpog'istonning Shabboz tumanidan Janabay Abulxayirov ham bor edi. Keyinchalik, o'sha paytda Shabboz tumanidagi Sulton bobo ziyoratgohida asosiy shayxi bo'lgan Rahmatulloh Idrisov QQASSRdan Makkaga haj qildi. 1950-yillarda har yili taxminan 20-30 kishi haj qildi, ammo ularning soni asta-sekin o'sib bordi. 1960-yillarda ziyoratchilar soni keskin kamaydi, binobarin SSSR hukumati va xavfsizlik idoralari tomonidan ruxsat berildi, ruxsat faqat ayrim shaxslarga berilganligi ta'kidlab o'tildi.

10. Din va diniy tashkilotlar masalalari 1943-yil 14-sentabrda tuzilgan SSSR SNK huzuridagi din ishlari bo'yicha Kengash tomonidan ko'rib chiqildi. Ushbu Kengashning vakolatli vakillari respublikalarda va joylarda ishladilar. QQASSRning birinchi komissari etib S. Allaniyazov tayinlandi. O'rganilayotgan davrda A. Irmanov, Davletov, D. Erekeshovlar bu lavozimda turli vaqtlarda ishlagan. Din ishlari bo'yicha Kengash komissari respublikadagi barcha diniy tashkilotlar faoliyatini nazorat qildi, barcha masjidlar, mozorlar, ziyoratgohlarni qayd etib borganligi haqida ma'lumotlar berildi.

11. Urush paytida sovet davlati dinga bosimning zaiflashishi bilan bir vaqtda targ'ibot apparatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. 1943-yildan beri mavjud bo'lgan hukumat huzuridagi lektsiyalar byurosi 1947-yilda tashkil yetilgan Butunittifoq siyosiy va ilmiy bilimlar jamiyati tarkibiga qo'shildi. 1963-yilda u Butunittifoq «Bilim» jamiyati deb o'zgartirildi. Qoraqalpog'istonda «Bilim» jamiyatining filialiga olimlar rahbarlik qilib, ma'ruzalar orqali ma'rifiy tadbirlar va aholi o'rtasida dinga qarshi targ'ibot, shuningdek, tegishli ilmiy-ommabop adabiyotlarni nashr etish bilan shug'ullangan. «Bilim» jamiyatining asosiy vazifalaridan biri dinni davlatdan ajratish, mafkuraviy «to'g'ri» qoidalarni o'rnatish orqali aholini diniy xurofotlardan uzoqlashtirish bo'lganligi ta'kidlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Qoraqalpog'iston hududida din arboblarning ismlarini aniqlash va tiklash, qatag'on qurbonlari dalillarini izlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish;
- musulmon dini ulamolari dafn etilgan joylarni, masjid va mozorlarning qoldiqlarini qidirish, ularni tiklash va davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- tadqiqot natijalaridan barcha darajadagi ta'lim muassasalari uchun ilmiy monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda foydalanish;
- Qatag'on va Mustaqillik uchun kurash qurbonlari muzeyida qatag'on qilingan musulmon dini arboblari, Qoraqalpog'istondagi masjid va mozorlar taqdiri to'g'risida maxsus ekspozitsiyalar va doimiy ko'rgazmalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРАКАЛПАКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ИНСТИТУТ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

РАМАТУЛЛАЕВ МАМАН АЛИШЕРОВИЧ

**ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА ПРОТИВ ИСЛАМА В
КАРАКАЛПАКСТАНЕ В 1943-1964 ГГ.**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2023.4.PhD/Tar1121.

Диссертация выполнена в Каракалпакском научно-исследовательском институте гуманитарных наук.

Автореферат диссертации на двух языках (узбекский, русский) размещен на веб-странице (www.karsu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Карлыбаев Максат Абдибаевич

Доктор исторических наук (DSc), старший научный сотрудник

Официальные рецензенты:

Сарыбаев Маман Ктайбекович

Доктор исторических наук, доцент

Алламуратов Гулмурат Султамуратович

Доктор философии по историческим наукам (PhD)

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «2» VIII 2024 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч.Абдирова, дом №1. Тел.: (99361)223-60-49; Факс: (361) 223-60-49; e-mail: karsu.info@edu.uz.)

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета Узбекистана. (зарегистрировано за №187) (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч.Абдирова, дом №1. Тел.: (99361)223-60-49; Факс: (361) 223-60-49.)

Автореферат диссертации разослан «18» VII 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 7 от «18» VII 2024 года.)



С.А.Сулайманов

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней: доктор исторических наук (DSc), доцент

Х.М.Отегенов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент

Б.А.Кошанов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. Современные тенденции развития мировой исторической науки обуславливают новые подходы к разработке вопросов истории религии и религиозной толерантности. Расцвет мировой цивилизации всегда основывалась на культуре разума, повышенного внимания к проблемам воспитания молодежи и просвещения общества, критики устаревших укладов жизни, идее религиозной и национальной толерантности, формирование активной гражданской позиции каждой личности. В принятой в 2018 году резолюции Генеральной Ассамблеи ООН «Просвещение и религиозная толерантность» в качестве важного условия обеспечения стабильной духовной атмосферы в обществе продвигает такие ценности, как поддержание взаимного уважения и взаимопонимания между людьми с различными религиозными убеждениями, недопущение их дискриминации. Подобные усилия являются следующим большим шагом международного сообщества для укрепления мира, спокойствия и стабильности в мире и играют важную роль в уважительном подходе представителей различных религий в обществе.

В странах Центральной Азии история политики советской власти в области религии и религиозных объединений граждан также вызывает серьезный научный интерес, так как этот вопрос связан с глубокими культурными традициями, определившие духовную жизнь народов, включавшая религиозно-этические представления, правовые нормы, обычаи. Данные исследования вносят свой посильный вклад в дело обеспечения межнационального мира и согласия в регионе, содействует укреплению межгосударственных связей и сохранению основ взаимопонимания и общности исторического прошлого народов Центральной Азии.

Идея сохранения межрелигиозной толерантности и свободы вероисповедания в Республике Узбекистан всегда была в центре внимания нашего правительства. «Одним из важнейших приоритетов государственной политики в стране было определено развитие культуры толерантности, укрепление межнационального и межконфессионального взаимопонимания и согласия, воспитание на этой основе молодого поколения»¹⁰⁷. Научное изучение темы истории религиозной политики определено служит не только изучению политики религиозной нетерпимости в советский период, но изжитию всяких форм дискриминации по религиозным убеждениям в современном обществе.

Данное диссертационное исследование служит реализации задач, обозначенных в Конституции Республики Узбекистан, закона «О свободе совести и религиозных организациях» от 5 июля 2021 года за №699, Указов Президента Республики Узбекистан “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы” от 28 января 2022 года за № УП-60, «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в религиозно-

